

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
YO'NALISHLARDA
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2026-yil 10-fevral)



Toshkent – 2026

TAHRIR HAY’ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filologiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

XALQ ERTAKLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim
pedagogikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Nig'matullayeva Fotima

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati mazmuni va mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ertak, tarbiya, odob, ma'naviyat

Annotation: This article highlights the educational significance, content, and essence of folk tales.

Keywords: fairy tale, upbringing, manners, spirituality.

Аннотация: В данной статье освещаются содержание, сущность и воспитательное значение народных сказок.

Ключевые слова: сказка, воспитание, нравственность, духовность.

“Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”⁶² – degan edi muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevich. XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimida juda ko'p o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangiliklarning kiritilishi ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat.

Xalq ertaklari insoniyat tarixining eng qadimgi ma'naviy boyliklaridan biri hisoblanadi. Ularda avlodlar tajribasi, hayotiy donolik, orzu-umid va maqsadlar mujassam bo'lgan. Har bir ertak o'z zamonining, o'z xalqining dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettirgan. Shu bois ertaklar faqatgina ko'ngil ochar hikoyalar emas, balki murakkab tarbiyaviy tizimning asosiy unsurlaridan biri sifatida ham qadrlanadi. Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy fe'l-atvordagi epik badiiy asar. Asosan, nasr

shaklida yaratilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'ati turk" asarida yetuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi⁶³.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya bolaning ichki dunyosini shakllantirish, uning to'g'ri xulq-atvori va jamiyatga mos ravishda rivojlanishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirishda o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy fazilatlari, mas'uliyat hissi, o'z-o'zini anglash va jamiyatda o'z o'rnini topish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu jarayonda xalq ertaklari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular bolaning to'g'ri xulq-atvorini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Xalq ertaklari orqali bola yaxshi va yomonni farqlashi, axloqiy qoidalarni tushunishi, adolat, vijdon, halollik kabi axloqiy fazilatlarni o'zlashtirishi mumkin.

O'zbek xalq ertaklari o'zining soddaligi, xalqona til boyligi, jonli obrazlari bilan ajralib turadi. Ular avloddan-avlodga o'tib kelgan va xalqning ma'naviy-madaniy hayotini aks ettirgan. Ertaklar ta'limiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Bolalar uchun ertaklar dunyo haqidagi birinchi bilim manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali quyidagi ta'limiy jihatlar shakllantiriladi: Dunyoqarashni kengaytirish – ertaklar orqali bolalar atrof-muhit, insoniy munosabatlar va hayotiy qadriyatlar bilan tanishadi. O'zbek xalq ertaklarida tarbiyaviy g'oyalar, ayniqsa, insonparvarlik, mehnatga muhabbat, adolatparvarlik, oila qadri kabi qadriyatlar ustuvor bo'lib, ularni ta'lim jarayoniga kiritish bolalarning ruhiy-ma'naviy rivojida katta rol o'ynaydi⁶⁴. Tafakkurni rivojlantirish – ertak syujetlari bola tasavvurini boyitadi, unga tahlil qilish, sabab va oqibatni tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi. Til va nutqni rivojlantirish – ertaklar bolalar nutqini boyitadi, yangi so'zlar, iboralar va nutqda o'ziga xosliklarini o'rgatadi. Ijodkorlikni shakllantirish – ertaklar bolalarning tasavvurini oshirib, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois ertaklar ta'lim jarayonida darsliklar, hikoyalar va dramatik chiqishlar orqali bolalarga yetkaziladi. O'zbek xalq ertaklari tarbiyaviy jihatdan ham juda muhim. Ular orqali bolalar axloqiy me'yorlar bilan tanishib, yaxshi va yomonning farqini tushunib boradilar. Ertaklarning tarbiyaviy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Halollik va adolat – ko'plab ertaklarda halol va mehnatsevar insonning g'alabasi tasvirlanadi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida halol va yaxshi qizning omadga erishishi, yovuz qizning esa jazolanishi aks ettiriladi.

2. Mehnatsevarlik – xalq ertaklari bolalarni mehnatsevar, fidoyi va harakatga intiluvchan bo‘lishga undaydi. Masalan, "Boychechak" ertagida qahramon mehnat bilan baxtga erishadi.

3. Mehr-oqibat va insoniylik – ertaklar insonlarga mehribon bo‘lish, ota-onani hurmat qilish, do‘stlarga sadoqatli bo‘lish kabi fazilatlarni targ‘ib qiladi.

4. Mardlik va jasorat – ko‘plab ertaklarda qahramon jasurligi, donoligi va aqlli harakatlari bilan yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi. Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash – barcha ertaklarda yaxshi va yomon obrazlar mavjud bo‘lib, natijada doim ezgulik g‘alaba qozonadi. Bu esa bolalarda odil bo‘lish hissini shakllantiradi.

Ertaklar bolada tasavvur va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bola har bir ertakda voqealar qanday rivojlanishini tasavvur qiladi, qahramonlarning harakatlariga baho beradi. Bu esa uning mantiqiy tafakkurini, xayol dunyosini va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi. Masalan, ertakdagi qiyin vaziyatlarga duch kelgan qahramonning qanday qaror qabul qilgani haqida o‘ylab ko‘rgan bola, o‘z hayotida ham shunga o‘xshash vaziyatlarga tayyor bo‘lib boradi. Shu bilan birga, ertaklar bolaning emotsional rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi. Har bir ertak bola qalbida turli xil his-tuyg‘ularni uyg‘otadi: quvonch, qayg‘u, umid, hayrat va hokazo. Bu esa bolaning emotsional dunyosini boyitadi, uni boshqalar his-tuyg‘ulariga nisbatan sezgirroq va hamdard qiladi. Bola qahramonning quvonchini o‘z yuragida his qiladi, uning dardiga hamdard bo‘ladi, muvaffaqiyatidan ilhom oladi.

Xalq ertaklari bolada sabr-toqat va kurashish hissini uyg‘otadi. Xalq og‘zaki ijodi, jumladan ertaklar shaxs tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular orqali bolalarda axloqiy fazilatlar shakllanadi⁶⁵. Ertakdagi qahramonlar odatda ko‘plab sinovlardan o‘tadilar. Ular shunchaki omad tufayli emas, balki sabr-toqat, jasorat va mehnat evaziga muvaffaqiyatga erishadilar. Bola bu jarayonni kuzatar ekan, shunday xulosaga keladi: hayotda hech bir yutuq tasodifan kelmaydi, har bir natija mehnat va intilish mahsulidir. Shuningdek, ertaklar bolada to‘g‘rilik va halollik fazilatlarini shakllantiradi. Ertaklarda yovuzlik va aldov oxir-oqibat yengiladi, halol va to‘g‘ri yo‘l tanlagan qahramon esa g‘olib bo‘ladi. Bu esa bolaning axloqiy mezonlarini shakllantiradi: bola o‘rgana boshlaydi — haqiqat doimo yutadi, adolatsizlik esa mag‘lubiyatga mahkum. Ertak bola uchun axloqiy ta’limot va nasihatlardan ko‘ra afzalroqdir. U yaxshilikka ishonchni uyg‘otadi, qiyin vaziyatda yechim topishga, odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi⁶⁶. Boshqa bir muhim jihat

shundaki, ertaklar bolaning milliy o'zligiga hurmat tuyg'usini oshiradi. Har bir xalqning ertaklari uning tarixi, madaniyati va urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liq. Bola ertak tinglar ekan, o'z xalqining qadimiy donishmandligini, orzu-umidlarini va hayot falsafasini his qiladi. Bu esa unda milliy g'urur, vatanparvarlik va o'z ildizlariga sadoqat ruhini shakllantiradi. Ertaklar nafaqat axloqiy tarbiya beradi, balki estetik tarbiyaning ham muhim vositasidir. Ular tili, tasviriy vositalari, qahramonlarning go'zal fazilatlarini orqali bolada badiiy did va go'zallikni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bola ertakdagi qahramonlarning betakror obrazlarini tasavvur qiladi, ularning jasoratidan ilhom oladi, atrofdagi olamni yanada nozikroq idrok qila boshlaydi. Bundan tashqari, ertaklar bolada ijtimoiy faoliyatga intilishni rag'batlantiradi. Bola jasur qahramonlarning jamiyatda o'z o'rnini topishini, boshqalarga yordam berishini, adolat va haqiqat uchun kurashishini ertaklarda ko'radi. Bu bola ongida ijtimoiy adolat g'oyalarini shakllantiradi, uni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi. Ayniqsa, ertaklardagi metafora va ramzlarning tarbiyaviy kuchi alohida e'tiborga loyiq. Ertaklardagi qiyin sinovlar, sehrli yordamchilar, qiyin tanlovlar — bularning barchasi hayotdagi haqiqiy muammolarning ramziy ifodalaridir. Bola bularni chuqur idrok etmasa ham, ong ostida bu ramzlar orqali hayotiy haqiqatlarni qabul qiladi. Ertaklar bolada irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Ko'pgina ertaklarda qahramon eng mushkul vaziyatlardan ham irodasi, qat'iyati va sabr-bardoshi bilan chiqadi. Bu holat bola ongiga chuqur o'rnashadi va o'z hayotida qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2017. – B. 167–169.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son. – Xalq so'zi, 2022. – 29-yanvar. – №22 (8084). – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. Yusupov R. Ertaklarning ijtimoiylashtirishdagi roli. – Toshkent: O'zbekiston ta'lim akademiyasi, 2021. – 112 b.
4. Beknazarova Sh.D. Xalq og'zaki ijodining shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati // Scientific Journal of Theory and Practice. – 2023. – №3. – B. 60–64. – URL: <https://scientific-jl.org/tal/article/view/2462>
5. Mahamadaliyeva N. Bolalar adabiyotini o'qitishda ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati // Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – T. 4, №1. – B. 6–. –

92. **Mirsagatova Nargiza**
Sayfullayevna,
Nigʻmatullayeva Fotima

Xalq ertaklarining tarbiyaviy
ahamiyati..... **425**